



BANKLAR MOLIYAVIY XIZMATLARI SIFATI VA OMMABOPLIGINI OSHIRISH

Boyev Bekzodjon Jo'raxon o'g'li
Ilmiy rahbar

Olqarova Zarina Nosir qizi
Toshkent Moliya instituti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada mamlakatimiz banklarining moliyaviy xizmatlari sifati va ommabopligini oshirishning hozirgi holati va ushbu masalaning amaliy yechimlari to'g'risida statistik ma'lumotlar keltirilgan. Markaziy bank hisobotlari, davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari va soha olimlarining amaliy tadqiqotlari shu yo'nalishda tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *banklar tizimi, moliya bozori, iqtisodiy kompleks, xizmatlar ommabopligini oshirish.*

KIRISH

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining «[O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida](#)»gi, «[Banklar va bank faoliyati to'g'risida](#)»gi, «[Valyutani tartibga solish to'g'risida](#)»gi hamda «[To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida](#)»gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy



yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda¹.

Bank tizimi ham zamon talablariga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishni davom ettirmoqda va shu tariqa ko‘plab bank xizmatlari avtomatlashtirilmoqda. Endi deyarli barcha bank xizmatlarini mobil telefon yoki maxsus qurilmalar yordamida bir lahzada olish mumkin. Bir necha yil oldin bunday imkoniyat yo‘q edi.

Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 12 may kuni tasdiqlangan «2020- 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes ja rayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Bugungi texnologiyalarning taraqqiyoti masofadan boshqariladigan va sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan texnologiyalargacha yetib keldi².

Texnologik taraqqiyotning bunday yutuqlari kirib kelmagan soha deyarli qolmadi. Jumladan, axborot, kompyuter, aloqa, tibbiyot, transport kabi texnologiyalar ijtimoiy sohalar (ta‘lim, tibbiyot, ma‘daniyat, san‘at va boshqa) hamda iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, xizmat ko‘rsatish, transport va aloqa kabi) tarmoqlarida, shuningdek huddi shular qatori bank sohasida ham keng foydalanib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

¹ 2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son
<https://lex.uz/docs/4811025?ONDATE=30.12.2021&ONDATE2=18.10.2021&action=compare>

² Melikov Otobek Maxmadaminovich “Raqamli bank texnologiyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil 290-b



Milliy bank moliya xizmatlari va ularning aloqalarini rivojlantirib, faoliyatni tezkor ravishda qayta loyihalashtirishga imkon beradi. O'z o'rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta'sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin³.

Iqtisodiy adabiyot va ilmiy tadqiqotlarda "bank moliya xizmatlari"ga turli qarash hamda tushuntirishlar berilgan. Masalan: M.V. Dubinning fikricha⁴, bank texnologiyalari – bu banklarda ishlatiladigan turli xil telekommunikatsiyalar, axborot texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, ichki protseduralar, risklarni boshqarish modellari va boshqalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bank texnologiyasi to'g'risida yuqoridagi konsepsiya ayrim manbalarda ilgari mavjud bo'lmagan, ya'ni bugungi fan-texnika taraqqiyoti davrida bunga asos solingan deb yuritiladi.

Ammo, tarix va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank texnologiyalari bank paydo bo'lgan ilk davrlardan boshlab sodda ko'rinishda (shaklda) bo'lsada mavjud bo'lgan. Buni texnologik taraqqiyot bosqichlari davri va banklarning rivojlanish davrlari bilan uyg'unlikda quyidagicha rivojlanish ierarxiasini

³ Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. – 13-16 p.


⁴ Дубинин М.В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.



izohlash

mumkin

(1-rasm).



1-rasm. Texnika va bankning rivojlanish davrlarining o‘zaro bog‘liqligi⁵

So‘ngi vaqtlarda kompyuterlar shu darajada takomillashib bormoqdaki, bu banklarga faqat orzu qilishlari mumkin bo‘lgan salohiyatlarni hamda bank mijozlariga katta imkoniyatlarni bermoqda. Banklarga yangi texnologiyalar olib kelgan o‘zgarishlar banklarning rahbarlari, xodimlari va mijozlariga katta ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, bank mahsulotlari va xizmatlarini har qachongidan ham qulayroq hamda samarali yetkazib berishga imkon beradi va shu bilan yangi raqobat asoslarini yaratadi⁶.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida tijorat banklarining korporativ transformatsiyasi jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:⁷

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to‘lovlarning soni va qamrovini kengaytirish;
- skoring, masofadan turib identifikatsiyalash va kredit konveyeri tizimidan keng foydalanish;
- bank axboroti va tizimlarning axborot xavfsizligini kuchaytirish;

⁵ Тарасова В.И. Межрегиональный центр банковских и финансовых технологий / Банковские и финансовые технологии для реального сектора экономики: сборник статей под ред. – М. 2000. – 134 с.


⁶ Sharma A., Kansal A. Technological innovations in banking sector: impact, behaviour and services // International journal of information & computation technology. Volume 4, Number 9, 2014. – 886 p.



● bank sektorida yangi konsepsiyalar va texnologiyalarni keng joriy etish (fintek, raqamli banking). Ushbu qadamlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal o‘shishini ta’minlashga, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda erkin bozorga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun bank xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan.

1-jadval

Markaziy bankning «Lahzali to‘lovlar tizimi» orqali amalga oshirilgan operatsiyalar



Bank moliya xizmatlariga individual operatsiyalar va umuman bank uchun mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish, operatsiyalarni amalga oshirish uchun vositalar to‘plami (shu jumladan texnik vositalar), masalan, plastik kartalar, mijozlarga interaktiv xizmat ko‘rsatish yoki boshqa har qanday narsalar kiradi. Bank texnologiyalari sohasiga avtomatlashtirish vositalari va axborot tizimlari, zamonaviy to‘lov tizimlari bilan ishlash, tarmoqlararo o‘zaro aloqalarni amalga oshirish, boshqaruv texnologiyalari va havfsizlik tizimi, telekommunikatsiyalar va boshqa ko‘p narsalar kiradi, ularsiz bugungi kunda bankni tasavvur qilib bo‘lmaydi.



Bank texnologiyalarisiz hozirgi kunda bank faoliyatini yuritish bilan bog'liq har qanday muammolarni hal qilish va jarayonlarni boshqarishni tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki so'nggi bir necha yil ichida qarorlar qabul qilish tezligiga bo'lgan talablar keskin o'zgarib ketdi, bank operatsiyalari jarayonida ishlatiladigan kompyuter dasturiy ta'minotlari takomillashib, ma'lumotlar hajmi oshdi.

“An'anaviy bank” tushunchasi va shu nomdagi fan hozirgi kunda “bank texnologiyalari”ga hamda ular haqidagi fanga aylanmoqda. Chunki bugungi kunda bank xizmatlarini ko'rsatishning nazariy emas, balki amaliy usullari va ularni amalga oshirishning texnik vositalari birinchi o'rinda turadi.

Shuning uchun ham zamonaviy aloqa dunyosida bank texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Ular axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari to'plamidir.

- | | |
|---|--|
| <input type="checkbox"/> Automated Teller Machine (ATM) | <input type="checkbox"/> Video Teller Machine (VTM) |
| <input type="checkbox"/> Mobile Banking | <input type="checkbox"/> Secure Short Messaging Service (SSMS) |
| <input type="checkbox"/> Internet Banking | <input type="checkbox"/> Near Sound Data Transfer (NSDT) |
| <input type="checkbox"/> SIM Application-toolkit | <input type="checkbox"/> Telephone Banking or Interactive Voice Response (IVR) |
| <input type="checkbox"/> RFID Technology | <input type="checkbox"/> Wireless Application Protocol (WAP) |
| <input type="checkbox"/> Contactless Payments using Near Field Technology (NFC) | <input type="checkbox"/> Unstructured Supplementary Service Data (USSD) |
| <input type="checkbox"/> Mobile Money | |

2-rasm. Bugungi kunda dunyo banklarida foydalaniladigan bank texnologiyalari

Bank sistemasidagi bazi texnologiyalar va dasturiy taminot paketlari haqida qisqacha izoh berib o'tsak:

Automated Teller Machine (ATM). Bu avtomatlashtirilgan bankomat bo'lib, u butun dunyoda qo'llaniladigan texnologiyadir. Bankomat mijozlarga har qanday vaqtda naqd pul kerak bo'lganda pulni naqd qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga yordam beradi. Mijozni identifikatsiyalash uchun bank tomonidan taqdim etiladigan PINkoddan foydalaniladi. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun mijoz



bankda hisob raqamiga, debet yoki kredit kartaga ega bo'lishi kerak. Pulni dunyoning istalgan nuqtasidan olish mumkin

Mobile Banking. Mobil bank – bu mijozlar uchun taqdim etilayotgan bank sohasida qo'llaniladigan eng yangi texnologiyalar. Mijozda aqlli telefon, planshet yoki shaxsiy raqamli qurilma bo'lishi kerak. Windows, Android, IOS va boshqa uyali telefonlarning operatsion dasturlariga mos keladigan dastur ishlab chiqilgan.

Internet Banking. Mijoz internet orqali o'z bank hisob raqami bo'yicha hisob balansi so'roviga kirish, to'lovlarni amalga oshirish, pul o'tkazmalari, xalqaro pul to'lovlari, doimiy tartib va to'g'ridan-to'g'ri debet to'lovlarini yaratish va yangilash hamda so'nggi operatsiyalarni tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Video Teller Machine (VTM): banklar orqali taqdim etiladigan yangi va innovatsion xizmat. Mijoz barcha bank operatsiyalari uchun VTM orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish vakiliga masofadan ulanadi. VTM mijozlarga barcha filiallar bank xizmatlarini taklif etadi.

SIM Application-toolkit: Bu mijoz bilan o'zaro aloqada bo'lishiga imkon beradigan, interaktiv menyusi dasturlashtirilgan standart SIM-karta sifatida ko'rsatilgan. O'zaro ta'sir mijoz va tarmoq o'rtasida bo'lib, almashinuv mijozga interaktiv menyu va dastur orqali ma'lumot kiritilishi bilan amalga oshiriladi.

Near Sound Data Transfer (NSDT): Bu har qanday mobil telefondan foydalanadigan mobil bank xizmatida ishlatiladigan tezkor, xavfsiz va qulay kontaktsiz to'lov texnologiyasi.

RFID Technology. Bank kartasi to'lov uchun chip bilan ta'minlanadi va to'lov oddiygina kartani RFID o'quvchi qurilma oldiga qo'yish orqali amalga oshiriladi hamda to'lov avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Telephone Banking or Interactive Voice Response (IVR). Telefon-bank bu mijoz tomonidan bank tomonidan taqdim etilgan maxsus raqamga qo'ng'iroq



qilgandan so'ng tizim bilan o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatini beradigan axborot texnologiyalaridir.

Wireless Application Protocol (WAP). Bu mobil bank xizmatida ishlatiladigan texnologiya bo'lib, mijoz bank veb-saytiga mobil telefonidagi brauzer yordamida internet orqali ulanadi.

Unstructured Supplementary Service Data (USSD). Bu menyular va belgilangan seansga ega SMS xizmati. Bu barcha telefon modellarida qo'llaniladigan standart. Mijoz javob berish uchun jummalarni ishlatishdan farqli o'laroq davom ettirish uchun menyudagi variantlar ro'yxatidan birini tanlashi kerak. USSDning asosiy afzalligi: mijoz menyudan tegishli variantlarni tanlab tezda javob beradi. USSD mijoz, uyali aloqa tarmog'i va bank o'rtasida aloqa o'rnatishga imkon beradi.

Contactless Payments using Near Field Technology (NFC). Bu ikki tomonlama radio to'lqinlari aloqasi, shuningdek mos keladigan dasturiy ta'minotni boshqaradigan va bir-biriga yaqin masofada joylashgan aqlli mobil qurilmalar yordamida mobil aloqa va simsiz to'lov shaklidir. NFC - bu qisqa masofali, yuqori chastotali texnologiya, bu qurilmalar o'rtasida 10 sm masofada ma'lumot almashish imkonini beradi. NFC RFID texnologiyasi asosida qurilgan. Qurilmalar o'rtasida simsiz aloqa va ma'lumotlar almashinuviga ruxsat berish. Qurilma faol yoki passiv rejimlardir.

Mobile Money. Mobil hamyon, mobil to'lov va mobil pul o'tkazmasi deb nomlanadi. Mobil pul xizmati butun dunyoda ishlatiladi, asosan Afrikada bank hisobvarag'iga ega yoki hisobi bo'lmaganlar uchun. Xizmat tijorat banklari bilan hamkorlikda bo'lgan uyali aloqa operatorlari tomonidan taqdim etiladi. Mobil pul hisobvaraqlari mijozning bank hisobvarag'i bilan ham bog'lanishi mumkin.

XULOSA VA MUHOKAMALAR

Bir so'z bilan shuni aytish mumkinki, bank xizmatlari sohasining ommabopligini ta'minlashda zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va



ularning dasturiy ta'minotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdordigini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytiri kabi ijobiy ta'sirlari ham mavjud.

ADABIYOTLAR

1. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/uz/docs>
2. Melikov Otabek Maxmadaminovich "Raqamli bank texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil 290-b
3. Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. – 13-16 p.
4. Goyal J., Singh M., Singh R., Aggarwal A. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach // The Journal of finance and data science, Vol. 5 (2019), 156-172
5. Дубинин М.В. Банковские технологии: сущность, история развития и перспективы // Финансы и кредит. №34 (274), 2007. – 58 с.
6. Тарасова В.И. Межрегиональный центр банковских и финансовых технологий / Банковские и финансовые технологии для реального сектора экономики: сборник статей под ред. – М. 2000. – 134 с.
7. Галаган А.А. От купца до банкира: история предпринимательства российского. – М.: Ось-89, 1997. – 167 с.